



Дистанционное обучение Вузах Узбекистана бюджет только платным
5-стр.



Twitterda uzoq kutilgan funktsiya ishga tushdi
6-bet.



FITRAT taqozosi
8-bet.



ict.xabar.uz

Gazeta 1992-yil martdan chiqa boshlagan

Xabar

ERUR SEN SHO'H, AGAR OGOHSEN SEN, AGAR OGOHSEN SEN, SHOHSEN SEN.

40 (1566)-son
7-oktabr
2022

@xabaruzofficial
facebook.com/xabar.uz/
@xabaruzofficial

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI NASHRI

www.xabar.uz

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI – TARAQQIYOT POYDEVORI



IT-PARKNING YANGI BINOSIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRI SHERZOD SHERMATOV ISHTIROKIDA XALQARO PRESS-KLUBNING "AXBOROT TEXNOLOGIYALARI – TARAQQIYOT POYDEVORI" MAVZUSIDAGI NAVBATDAGI SAYYOR SESSIYASI BO'LIB O'TDI.

2

ENG YAKSHI ELEKTRON HUKUMATLAR (TOP-10)

(Mamlakatlarning 2022-yildagi Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi (EIDI))

1. Daniya – 0.9717
2. Finlandiya – 0.9533
3. Janubiy Koreya – 0.9529
4. Yangi Zelandiya – 0.9432
5. Shvetsiya – 0.9410
6. Islandiya – 0.9410
7. Avstraliya – 0.9405
8. Estoniya – 0.9393
9. Niderlandiya – 0.9384
10. AQSh – 0.9151



Manba: E-Government Survey 2022

O'quv mashg'uloti

Xalq muhofazasi – oliy vazifa!

Joriy yilning 4 oktabrda "Elektron hukumat loyihalarini boshqarish markazi" va "Raqamli iqtisodiyot tadqiqotlari markazi" davlat muassasalari xodimlari ishtirokida navbatdagi o'quv mashg'uloti o'tkazildi.

Tadbirida xodimlarga O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 17-avgustdagi "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi qonuni mazmun-mohiyati tushuntirib berildi. Ushbu hujjat 2022-yil 19-noyabrda kuchga kiradi.

Ma'lumki, o'tgan yillar davomida mamlakatimizda bir qator favqulodda holatlar yuz berdi. Bu, o'z navbatida, "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunning qayta ko'rib chiqilishini talab etdi.

Qonunda favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish tadbirlarini amalga oshirish, e'lon qilish xavfi yuzaga kelganligi to'g'risida aholiga xabar berish, vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarning aniq vazifalari hamda favqulodda vaziyatlarni bartaraf

etish tadbirlariga rahbarlik qilish kabi bir qator holatlar mustahkamlab qo'yildi.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha maxsus vakolatli davlat boshqaruvi organi etib belgilandi. Shuningdek, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining, nodavlat-notijorat tashkilotlarining hamda ommaviy axborot vositalarining favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etishda ishtirok etish tartibi mavjud. Xususan, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etishda ishtirok etish, aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishlari mumkin.

Mashg'ulot yakunida mas'ullar tomonidan xodimlarni qiziqtirgan savollarga javoblar berildi.



Jumadan Jumagacha

29 sentabr kuni Termiz xalqaro aeroportidan O'zbekiston Respublikasi hukumati va BMTning Qochoqlar ishlari bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi Pokistondagi halokatli suv toshqinlaridan jabrlanganlar uchun insonparvarlik yuklari orilgan havo transportini Karachi shahriga jo'natdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 29 sentabr kuni Saudiya Arabistoni Podshohligi haj va umra ishlari vaziri Tavfiq bin Favzon ar-Rabiya boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi. Suhbat chog'ida O'zbekiston fuqarolari uchun yillik haj kvotasini ikki barobar – 24 ming nafargacha, umra kvotasini esa 100 ming nafargacha oshirish yuzasidan kelishuvga erishildi.

30 sentabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizga amaliy tashrif bilan kelgan Jahon banki vitse-prezidenti Anna Bverde boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi. Uchrashuvda ushbu nufuzli xalqaro moliyaviy institut bilan strategik sheriklikni yanada rivojlantirish, shuningdek, mamlakatimizdagi eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar dasturini ilgari surish bo'yicha hamkorlikni kengaytirishning amaliy jihatlari ko'rib chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Vengriya tomonining taklifiga binoan 3–4 oktabr kunlari rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo'ldi. Tashrif doirasida Budapesht shahrida Vengriya Prezidenti Katalina Novak va Bosh vaziri Viktor Orban bilan oliy darajadagi muzokaralar bo'lib o'tdi. Muzokaralar yakunida qo'shma bayonot va ikki tomonlama hujjatlarning salmoqli to'plami imzolandi.

4 oktabr kuni Oliy Majlis Senati kengashining majlisi bo'lib o'tdi. Unda Senatning o'ttiz uchinchi yalpi majlisini chaqirish to'g'risidagi masala ko'rib chiqildi. Majlisda Senatning o'ttiz uchinchi yalpi majlisini 2022 yil 7 oktabr kuni chaqirish to'g'risida qaror qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 5 oktabr kuni Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon bilan telefon orqali muloqot qildi. Davlatimiz rahbari Tojikiston yetakchisini 70 yillik yubileyi bilan chin dildan tabriklab, unga mustahkam sog'lik, baxt-saodat va katta muvaffaqiyatlar, birodar Tojikiston xalqiga esa tinchlik-osoyishtalik va ravnaq tiladi. Suhbat chog'ida ilgari erishilgan kelishuvlar va qabul qilingan bitimlarni amalga oshirish masalalari ko'rib chiqildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev qishloq xo'jaligidagi ishlar holati, aholi hayoti bilan tanishish maqsadida 6 oktabr kuni Sirdaryo viloyatiga keldi. Bu yil viloyatda 75 ming gektar maydonda paxta yetishtirildi. Ayni paytda qariyb 80 ming gektar yerga g'alla ekilmoqda. Davlatimiz rahbari Sirdaryo tumanidagi "Arslon bobo" va "Omonboy o'g'li Tugal" fermer xo'jaliklari dalasini ko'zdan kechirdi.



Xalqaro forum: Kun tartibida texnologiya va IT sohasi tendensiyalari

"Hilton Tashkent City" mehmonxonasida 6-13-oktabr kunlari bo'lib o'tadigan dzyudo bo'yicha Jahon chempionati doirasida tashkil etilgan xalqaro iqtisodiy forum tashkil etildi.

Forumning ochilish marosimida O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari – investitsiyalar va tashqi savdo vaziri Jamshid Xodjayev, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri Sherzod Shermatov, Sportni rivojlantirish vaziri Adxam Ikramov, Xalqaro dzyudo federatsiyasi prezidenti Marius Vizer ishtirok etdi. Ishtirokchilar orasida diplomatik vakolatxonalar, federat-

siyalar, ittifoqlar, turli mamlakatlarning dzyudo bo'yicha konfederatsiyalari vakillari, xalqaro tashkilotlar va moliya institutlari vakillari ham qatnashdi.

Bank, moliya, texnologiya va IT sohasidagi tendensiyalar forum kun tartibidan asosiy o'rin egalladi. Bundan tashqari, ishtirokchilar O'zbekistonga sarmoya kiritish masalalarini ham muhokama qildilar.

Forumda O'zbekistonda 2030-yilga borib qayta tiklana-

digan energetikadan foydalanish ko'lamini qariyb 30 foizga oshirish rejalashtirilayotgani aytili.

Shuningdek, ishtirokchilarning e'tibori butun dunyoda jadal rivojlanayotgan raqamli texnologiyalarga qaratildi. Ta'kidlanishicha, bu sohada har bir mamlakatning raqobatbardoshligi innovatsiyalar va to'g'ridan-to'g'ri axborot texnologiyalarining joriy etilishiga bog'liq bo'ladi.

Forum doirasida B2B va B2G uchrashuvlari ham bo'lib o'tdi.

Hamkorlik

Axborot texnologiyalari – taraqqiyot poydevori



Ayti sohasining bugungi kundagi ahamiyati va istiqbollari, qolaversa, yurtimizda qisqa fursat ichida ushbu sohada olib borilgan islohotlar xususida jonli muloqot asosida tashkil etilgan sessiya "O'zbekiston 24", "Renesans", "UzReport" telekanallari orqali to'g'ridan-to'g'ri efirga uzatildi.

Ayti kompaniyalar uchun istiqbolli boshlang'ich loyihalarni, tashqi iqtisodiy zonani, shu jumladan, ilmiy va ta'lim tashkilotlari bilan integratsiyalashgan holda ishga tushirish va bozorga chiqarishni ta'minlash uchun mo'ljallangan ob'ektlar, bino va inshootlar majmuasi hisoblanmish IT-Park direktori Farhod Ibragimov esa ushbu osmono'par binoning qad rostlashi xorijlik hamkorlarimizga O'zbekistonda tanitishda va mamlakatimizni Markaziy Osiyoning IT xabiga aylantirishda alohida o'rin tutishi haqida ham o'z fikrlari bilan o'rtoqlashdi.

Shuningdek, bugungi kunda IT ayollar uchun ham nihoyatda qulay ekanligi va ushbu sohaga xotin-qizlarni jalb qilish borasida AKT vaziri maslahatchisi Kamola Sobirova so'z yuritdi.

Bugungi kunda yoshlarimizning ayti sohasida ta'lim olishlari uchun yaratilayotgan imkoniyatlar haqida so'zga chiqqan INHA universiteti rektori v.b. Muzaffar Jalolov bu yilning o'zida yurtimizda IT-Park University hamda PDP University ochilishi ta'lim sifatini yanada oshirishga yordam berishini ham alohida ta'kidladi.

Bundan tashqari, ochiq muloqotning yakuniy qismida turli OAV vakillari bilan ham savol-javoblar bo'lib o'tdi.

E'zoza TURG'UNOVA

Yevroosiyo AKT mutaxassislari O'zbekiston Datamarkazi bilan tanishtirildi

“Hyatt Regency Tashkent” mehmonxonasida Huawei kompaniyasi tomonidan ma'lumotlarni qayta ishlash va saqlash markazlari (DPC) va bulutli hisoblash uchun texnologik yechimlarga bag'ishlangan “Euroasia Data Center and Cloud Forum” tadbiri bo'lib o'tdi.

Ushbu tadbirning aynan O'zbekistonda o'tkazilishi ham bejiz emas. Joriy yilning 27-avgust kuni O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ushbu Datamarkazning ochilishida ishtirok etgan edi. Mazkur markaz ishga tushishi natijasida davlat idoralarning ma'lumotlarni saqlash va texnik qo'llab-quvvatlashga sarflaydigan milliardlab xarajatlar tejalandi, aholi va tadbirkorlarga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati yaxshilanadi.

Shu munosabat bilan 3-oktabr kuni Yevroosiyo davlatlaridan kelgan AKT mutaxassislari O'zbekistonda yaratilgan eng oxirgi rusumdagi Huawei kompaniyasi Datamarkazi misolida ilg'or tajribalar bilan tanishtirildi va elektron

hukumat tizimlarini joriy etishdagi xalqaro trendlar haqida fikr almashdilar.

Tadbir “Yevroosiyo mintaqasida raqamli transformatsiyani jadal-lashtirish uchun to'liq huquqli ekotizimni birgalikda qurish” mavzusiga bag'ishlandi.

Tadbirni o'z nutqi bilan ochib bergan Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri Sherzod Shermatov “Raqamli O'zbekiston”ni rivojlantirish borasida erishilgan asosiy yutuqlar va davlatimiz tomonidan IT sohasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar haqida so'z yuritdi.

Huawei kompaniyasining Yevroosiyo mintaqasi prezidenti Daniel Chjou ham qutlov nutqi so'zlab, O'zbekiston raqamli rivojlanish

sohasida sezilarli muvaffaqiyatga erishgani, yaqinda e'lon qilingan “Elektron hukumat” global reytingi bo'yicha BMT hisobotida O'zbekiston 18 pog'onaga ko'tarilganini, shuningdek, Global Innovation Index 2022 reytingida mamlakat mavqeini 4 pog'onaga yaxshilaganini e'tirof etdi.

Milliy ma'lumotlar markazini yaratish bo'yicha amalga oshirilgan loyihalar boshqa mamlakatlar uchun namuna bo'lishi aytib o'tildi.

Shuningdek, forumda raqamlashtirishni rivojlantirishning yangi imkoniyatlari, ma'lumotlar markazlarini qurishning amaliy jihatlari, mintaqada raqamli transformatsiyani tezlashtirish uchun sun'iy intellektdan foydalanish kabi mavzular ham muhokama qilindi.



TATU talabalari yuqori tezlikdagi internet bilan ta'minlanadi

Ma'lumki, davlatimiz rahbariyati tomonidan mamlakatimizdagi yoshlarning ta'lim olishiga, ta'lim sifatini oshirishga va xalqaro me'yorlar darajasida kadrlar tayyorlashga, iqtisodiyotning turli tarmoqlari uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida yuqori malakali, bilimli va yetuk qobiliyatga ega kadrlar tayyorlash, ularning kelgusida aniq ish bilan ta'minlanishiga alohida ahamiyat qaratilmoqda.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-mayda qabul qilingan “O'zbekiston Respublikasi aholi punktlarida telekommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 4329-sonli qarori ijrosini ta'minlash bo'yicha qator salmoqli loyihalar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, mamlakatimizdagi barcha davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari va mahalliy davlat boshqaruvi organlari faoliyatiga “Raqamli O'zbekiston-2030” strategiyasini amalga oshirish hamda axborot-kommunikatsiya tizimlarini ishlab chiqarishning barcha sohalariga joriy qilish bo'yicha ko'plab istiqbolli loyihalar amalga oshirilyapti. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda AKT sohasida yetuk bilimga ega bo'lgan, zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini o'zlashtirgan va o'z ish faoliyatida qo'llay oladigan

mutaxassislarni tayyorlash masalasi dolzarbligicha qolmoqda.

Yoshlar va talabalarga raqamli texnologiyalar asosida bilim olishlari uchun ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yanada yaxshilash, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash, ishlab chiqarish va o'quv jarayonidagi tafovutni qisqartirish, universitet o'quv laboratoriyalarini zamonaviy uskunalar hamda jihozlar bilan ta'minlash, shu bilan birga, talabalar turarjoylari va universitet hududini yuqori tezlikdagi internet bilan ta'minlashga amaliy ko'mak berish maqsadida Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida AKT sohasi bo'yicha (Toshkent shahar hududiy boshqarmasi va “O'zbektelekom” AK “TShTT” filiali direktori, o'rinbosarlar, bog'lama boshliqlari va tegishli mutaxassislar) mutasad-

dilari ishtirokida Sayyor qabul tadbiri o'tkazildi.

Sayyor qabul tadbirining asosiy maqsadi:

1. Universitet hududida, shu jumladan, talabalar turarjoyida telekommunikatsiya xizmatlarining mavjud holati, ularning faoliyatidagi tizimli muammolar va kamchiliklarni tezkor bartaraf etish mexanizmlarini yaratish;
2. Universitet o'qituvchi va murabbiylarining telekommunikatsiya xizmatlaridan foydalanishlariga keng imkoniyatlar yaratish, sohani iqtisodiyotning asosiy drayverlaridan biriga aylantirish bo'yicha tizimli islohotlarni amalga oshirish borasida olib borilayotgan amaliy ishlar;
3. Universitet talabalari orasida telekommunikatsiya xizmatlaridan foydalanish holati va yuqori tezlikdagi internet tarmog'iga talabalar turarjoylarida va xususiy xonadonlarda istiqomat qilayotgan talabalarni

jismoniy shaxs sifatida tarmoqqa ulash yechimlari;

4. Talabalarni o'qishdan tashqari vaqtlarda qo'shimcha daromad to'pishlari bo'yicha “O'zbektelekom” AK “TShTT” filialida mavjud bo'sh ish o'rinlariga yosh iqtidorli kadrlarni jalb etish imkoniyatini yaratish, shuningdek, ularning o'z mutaxassisliklari bo'yicha ish bilan ta'minlanishlariga sharoit yaratish va ishga joylashishlariga ko'maklashishdan iboratdir.

Sayyor qabulda TATUning talabalar turarjoyida istiqomat qiladigan 2536 nafar va xususiy xonadonlarda istiqomat qiladigan 1645 nafar talabalar sohada bo'layotgan o'zgarishlar, muammo va yechimlar to'g'risida ma'lumotga ega bo'ldilar.

Shu bilan birga, axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasining yetuk mutaxassislari tomonidan fan, ta'lim va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash, ishlab chiqarish va o'quv jarayonidagi tafovutni qisqartirish, universitetning “Telekommunikatsiya injiniringi” kafedrasini negizida “Zamonaviy optik aloqa tizimlari va tarmoqlari laboratoriya”sini tashkil etish to'g'risidagi taklifi ma'qullandi.

Solijon ZOIROV,
“Xabar” muxbiri
Muallif olgan suratlar.



Kiberfiribgarlar

tuzog'idan ehtiyot bo'ling

Axborot texnologiyalari sohasi tadbirkorlar uchun minimal xarajat evaziga mehnat unumdorligi va daromadini oshirishni taklif qilishda davom etmoqda. Avtomatlashtirilgan tizimlar, bulutli hisoblash va saqlashlar kabi zamonaviy innovatsiyalar kichik biznes uchun foydali bo'lsada, ular xavfsizlik muammolarini ham keltirib chiqaradi.

Axborot xavfsizligi xavflardan saqlanish maqsadida korxonalar axborot xavfsizligini ta'minlovchi dasturiy ta'minotlarni joriy etishga katta ahamiyat bermogda. Korxonalar raqamlashtirish tomon ketishiga, axborot texnologiyalarini joriy etishiga 2021-yilda bo'lgan pandemiya katta ta'sir ko'rsatdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. 2021-yilda ko'p korxonalar masofaviy ishlash amaliyotini joriy etdi. Bunda nafaqat korxonada axborot xavfsizligini ta'minlanishi, balki xodimlarni ham axborot xavfsizligini ta'minlash tamoyillari bilan tanishtirib o'tishi lozim bo'lmoqda.

Mamlakatimizda onlayn servislar ko'payishi bilan nafaqat korxonalar kiberhujumlar amalga oshirilmoqda, balki shaxsiy ma'lumotlarga ega bo'lish maqsadida to'g'ridan-to'g'ri foydalanuvchilar bilan internet yoki telefon orqali bog'lanishmoqda. Ushbu firibgarlar mahsulotlarning narxini past ko'rsatish, taniqli tashkilotlar nomidan turli tanlovlar o'tkazish haqida yolg'on ma'lumotlar berish orqali bank kartalari foydalanuvchilarining shaxsiy ma'lumotlariga ega bo'lishyapti.

Quyida axborot texnologiyalari, shu bilan birga shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha sakizta maslahat keltiriladi.

1. Murakkab parol bilan hisob moyalang. Bu arzimmas narsadek tuyulishi mumkin, ammo zaif parol protokollari tufayli ko'plab kiberhujumlar muvaffaqiyatli amalga oshiriladi. Barcha uskunalar, simsiz tarmoqlar va maxfiy ma'lumotlarga kirish muayyan shaxslar uchun mo'ljallangan noyob foydalanuvchi nomlari va parollar bilan himoyalangan bo'lishi kerak. Eng ishonchli parollar raqamlar, harflar va belgilarni o'z ichiga oladi va umumiy so'zlarga, standart lug'at atamalariga yoki tug'ilgan kun kabi oson taxmin qilinadigan sanalarga asoslanmagan bo'ladi. Agar siz barcha foydalanuvchilar kirish kodlarini o'z ichiga olgan hujjat yaratsangiz, uni o'zingizning noyob kirish kodingiz bilan shifrlashni unutmang va uni xavfsiz joyda saqlang.

2. Xavfsiz tizimlarni loyihalang. IT infratuzilman-gizga kirishni cheklash orqali xakerlar va o'g'rilar xavfini kamaytiring. Uskuna va dasturiy ta'minotlarga keraksiz kirishni yo'q qilish hamda har bir alohida foydalanuvchi uchun tizim imtiyozlarini faqat kerakli apparat va dasturiy ta'minot bilan cheklash orqali nosozlik nuqtalarini minimallashtiring. Har bir foydalanuvchi, ishchi guruh yoki bo'lim uchun noyob elektron pochta manzillari, loginlar, serverlar va domen nomlari to'plamidan foydalanib, iloji boricha tarmoqlaringizdagi mumkin bo'lgan uzilishlarni minimallashtiring.

3. Bazali o'qitishni ta'minlang. Ko'p sonli nosozliklar inson xatosi yoki beparvoligi natijasida yuzaga keladi. Parolga beparvo bo'lish, tarmoqlardan noto'g'ri harakatlar qilish, dasturlar va qurilmalardan ehtiyotsiz foydalanish turli xavflar keltirishi haqida ogohlantiruvchi o'quv dasturlari yordamida axborot xavfsizligiga yo'naltirilgan madaniyatni yaratishingiz mumkin.

4. Elektron pochta noma'lum ilovalardan saqlanang. Hech qachon viruslar, troyan otlari yoki kompyuter qurtlari bo'lishi mumkin bo'lgan keraksiz elektron pochta ilovalarini ochmang. Ularni ochishdan oldin xabar mazmunini tasdiqlash uchun har doim jo'natuvchiga murojaat qiling. Agar siz manba bilan tanish bo'lmasangiz, xabarni o'chirib, so'ngra jo'natuvchining akkauntini bloklay va boshqalarni ogohlantirish orqali ehtiyot choralarini ko'ring.

5. Telefoni qo'ying va raqamni tekshiring. Telefon firibgarlari ko'pincha hech narsadan shubhalanmagan qurbonlarni o'lja qilishadi. Agar bank potentsial mijozlar yoki hamkor tashkilot vakili sifatida sizdan maxfiy ma'lumotlarni so'rayotgan bo'lsa, shu zahoti go'shakni qo'ying. Keyin qo'ng'iroq qonuniy ekanligini tekshiring.

6. Bosishdan oldin o'ylab ko'ring. Fishing firibgarliklari shubha uyg'otmaydigan ko'rinishda ishonchli manbalardan foydalanadilar va ular orqali loginlar, parollar yoki shaxsiy ma'lumotlarni olishadi. Ba'zi firibgarlar hatto potentsial qurbonlar ma'lumotlarini o'zlari kiritishiga undaydigan soxta veb-saytlarni ishlab chiqadi. Bunday ma'lumotlarni taqdim etishdan yoki shubhali havolalarni bosishdan oldin har doim ma'lumot so'rayotgan kompaniyaning haqiqiy internet manzilini ilovchi platformada qarab ko'ring.

7. Viruslar skaneridan foydalaning va barcha dasturlarni yangilab turing. Bunday ilovalarni bepul taklif qiladigan tarmoq provayderlari ham mavjud. Ular ichidan o'zingizga maqbulini tanlang. Bundan tashqari, barcha turdagi dasturiy ta'minotni yangilab turish kerak hamda ularni kompyuterga o'rnatayotganda ishonchli manbalardan yuklash lozim.

8. Maxfiy ma'lumotlarni bulutdan uzoqroq tuting. Bulutli hisoblash texnologiyalari korxonalariga ko'plab imtiyozlar va xarajatlarni tejash imkonini beradi. Ammo bunday xizmatlar qo'shimcha tahdidlarni ham keltirib chiqarishi mumkin, chunki ma'lumotlar uchinchi shaxslar tomonidan boshqariladigan masofaviy serverlarda joylashgan bo'lib, ular o'zlarining xavfsizlik muammolariga ega bo'lishi mumkin.

Asosiysi, hech narsani masalan, mijozlar, korporativ manzillar va boshqa ma'lumotlarga ega bo'lgan hujjatlarni, jumladan, maxfiy hisobotlarni stolingizda unutib qoldirmang. Yuqoridagi keltirilgan oson tadbirlarni amalga oshirish orqali nafaqat korxonangiz aktivlarini, balki shaxsiy mablag'laringizni himoya qilasiz.

Sardor BAXRAMOV,
“Axborot texnologiyalari va axborot resurslarini rivojlantirish markazi”
DUK audit va axborot resurslarining
huquqiy ekspertizasi xizmatlarini
ko'rsatish bo'limi boshlig'i

Seminar

KORRUPSIYASIZ JAMIYAT SARI

So'nggi yillarda mamlakatimizda korruptsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish, davlat va jamiyat qurilishining barcha sohalarida korruptsion omillarga chek qo'yishga qaratilgan islohotlar izchil amalga oshirilmoqda.

“Elektromagnit moslashuv markazi” DUKning Xorazm viloyati EMMX xodimlari ishtirokida “Korruptsiya va uning jamiyatimizga yetkaziladigan zararli oqibatlari” mavzusida o'tkazilgan o'quv seminarida ham davlat organlari zimmasidagi vazifa va funktsiyalarni bajarishda yuzaga keladigan korruptsiyaga oid xavf-xatarlarni baholash tizimini takomillashtirish hamda davlat xizmatiga halollik standartlarini joriy masalalari muhokama etildi.

Urganch shahar Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasining Jinoyat qidiruv bo'limi tezkor vakili kapitan J. Bobojonov ishtirok etib, yig'ilganlarga “Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi qonun hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 iyundagi “O'zbekiston Respublikasida korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmoni mazmun-mohiyati haqida tushunchalar berdi.

Seminar so'ngida ishtirokchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga to'liq javoblar oldi.

O'z muxbirimiz



ДИСТАНЦИОННОЕ ОБУЧЕНИЕ В ВУЗАХ УЗБЕКИСТАНА БУДЕТ ТОЛЬКО ПЛАТНЫМ



Кабмин 3 октября утвердил положение о введении дистанционной формы обучения в вузах. Документ определяет порядок, в соответствии с которым учебные заведения могут организовать подготовку в бакалавриате и на магистратуре в онлайн-режиме. Президент поручал им внедрить дистанционное образование с этого учебного года.

Для этого вуз должен обеспечить следующие условия:

- платформу управления обучением (Learning Management System);
- учебный контент на год, а также электронная база научной

и образовательной литературы;

- сервер для обучения, расположенный на территории Узбекистана;
- инфраструктура для подключения к интернету;
- специальные аудитории или корпуса, оборудованные компьютерами;
- наличие технических специалистов для обеспечения работы IT-систем.

По одному направлению бакалавриата на дистанционное отделение разрешается набирать не более 300 студентов (без учёта иностранных граждан). Лимит для специальности магистратуры составляет 30 человек.

Ограничения не распространяются на направления, связанные с информационными технологиями.

Студент должен будет приходить лично в вуз для регистрации в системе LMS, а также в конце каждого семестра для прохождения контроля. Государственная аттестация, защита квалификационных и магистерских работ также будут проводиться только оффлайн.

Ежегодно до 1 апреля будет публиковаться список направлений бакалавриата и магистратуры, на которых невозможно ввести онлайн-обучение.

Приём в вузы на дистанционное обучение будет проводиться на платно-контрактной основе.

ЧЕРЕЗ ЕПИГУ МОЖНО БУДЕТ УЗНАТЬ О НАЛИЧИИ ЗАПРЕТА НА ПРОДАЖУ АВТО

На ЕПИГУ появилась функция запроса о наличии или отсутствии запрета на автомобиль пользователя. Об этом сообщила пресс-служба портала.

Новая услуга позволяет найти запреты со стороны суда, нотариусов, МВД, Бюро принудительного исполнения, налоговых и таможенных органами. Они могут быть связаны с долгами, кредитными обязательствами, исполнительными документами и другими причинами.

Проверить наличие запретов можно как физические, так и юридические лица. Сведения доступны только для владельцев автомобиля, но не для управляющих им по доверенности.

Услуга «Подача заявления на проверку запрета» доступна на сайте, в разделе «Транспорт». Результат предоставляется моментально и бесплатно.



МИНЭНЕРГО ЗАПУСТИЛО МАРКЕТПЛЕЙС СОЛНЕЧНЫХ ФОТОПАНЕЛЕЙ И БОЙЛЕРОВ

С 1 октября заработала цифровая платформа Межотраслевого фонда энергосбережения при Минэнерго, передаёт пресс-служба министерства.

Через новый сайт потребители могут купить онлайн солнечные панели и водонагреватели от производителей из Узбекистана. Сейчас число предлагаемых товаров ограничено, но над их расширением ведутся работы.

Платформа доступна в тестовом режиме по адресу energymarket.uz. В ближайшее время планируется запуск мобильной версии сайта.

Оборудование ВИЭ можно приобрести в рассрочку без процентов на срок до 3 лет. Для кредитования покупок фонд заключил соглашения с четырьмя банками Узбекистана — «Ипотека банк», «Кишлок курилиш банк», Народным банком и «Узпромстройбанком».

В качестве альтернативы при предоплате 100% стоимости оборудования часть затрат будет компенсироваться фондом из средств госбюджета. Максимальная сумма компенсации составит 20 БРВ (6 млн сумов) для фотопанелей и 7 БРВ (2,1 млн. сумов) для водонагревателей.

МОЖНО ЛИ ОГРАНИЧИТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ РАДИОЧАСТОТНОГО СПЕКТРА?

Вопрос: можно ли ограничить использование радиочастотного спектра?

Ответ: да. Радиочастотные органы при определенных условиях, связанных с особенностями эксплуатации радиоэлектронных средств и высокочастотных устройств, а также возможностью использования отдельных радиочастот, вправе прекратить, приостановить или ограничить пользование радиочастотным спектром.

Данный ответ основан на статье 13 Закона Республики Узбекистан «О радиочастотном спектре».

ROZETKA ПРИОСТАНОВИЛА РАБОТУ В УЗБЕКИСТАНЕ И ОТКЛЮЧИЛА МЕСТНЫЙ САЙТ



Украинский онлайн-магазин Rozetka свернул активность в Узбекистане. Первые сообщения о приостановке появились в конце сентября. При открытии адреса rozetka.uz происходит перенаправление на украинский сайт, а приложения Rozetka Uzbekistan исчезли из маркетплейсов.

«Онлайн-ритейлер Rozetka приостановил работу в Узбекистане», — сообщили в компании без дополнительных комментариев.

Страницы компании в соцсетях не обновлялись уже почти месяц. Последнее сообщение в Telegram-канале ROZETKA.UZ датируется 6 сентября, а профиль в Instagram переведён в закрытый режим. Чат-бот магазина был удалён.

Rozetka была создана в Украине в 2005 году и за последующие годы стала крупнейшим онлайн-ритейлером на украинском и молдавском рынках. В 2021 году компания стала проявлять активный интерес к рынку Узбекистана.

НА КАКИЕ ПРОБЛЕМЫ С БАНКАМИ УЗБЕКИСТАНА ЧАЩЕ ВСЕГО ЖАЛУЮТСЯ В СОЦСЕТЯХ

Центробанк за три месяца предупредил 15 коммерческих банков о жалобах клиентов в соцсетях, сообщила пресс-служба регулятора.

Сотрудники в июле-сентябре обнаружили в интернете ряд сообщений на тему проблем с банковским обслуживанием. Наиболее часто упоминались следующие претензии:

- списание денег с карты при отсутствии выдачи наличных банкоматом;
- затруднения с получением пособий на карты;
- перебои с поступлением сделанных из мобильных приложений переводов на карты;
- снятие с карты платежей по уже погашенному кредиту;
- невыплата кэшбека за досрочное погашение займов;
- звонки из банков по поводу поручительства по кредитам, о котором клиент не знал.

По итогам мониторинга ЦБ отправил 31 оповещение в коммерческие банки. В них сообщалось о необходимости изучения каждого случая и принятия нужных мер.

Как заявили в ЦБ, в большинстве случаев коммерческие банки решили проблемы, упомянутые в сообщениях. Некоторые из них также выпустили на своих онлайн-ресурсах официальные разъяснения по вопросам.

Регулятор напомнил клиентам, что жалобы и обращения должны рассматриваться госучреждениями и организациями в срок от 15 дней до месяца.





SUKERBERGNI BAYONOTI TUFAYLI META ENG QIMMAT 10 KOMPANIYA SAFIDAN CHIQUIB KETDI



Meta (Facebook) kompaniyasi, kapital qiymatiga ko'ra, eng qimmat AQSh kompaniyalari yetakchi o'nligini tark etdi. Chunki endilikda Mark Sukerberg kompaniyasi ushbu reytingdagi ta'qibchisi — Exxon neft-gaz kompaniyasidan arzonroq.

Facebook o'z tarixidagi eng qimmat cho'qqiga 2021-yilning 7-sentabrda ko'tarilgan va kapital qiymati \$1,078 trillionni tashkil etgandi. 2022-yil boshidan buyon kompaniya aksiyalari 59 foizgacha qadrsizlangan (Dow Jones Market Data hisoboti).

Shu yilning 19-sentabr kuni (2019-yil yanvardan beri birinchi marta) Meta kompaniyasi qiymati \$400 milliarddan pasaydi. Kecha, payshanba kuni savdolar yakunida kompaniya qiymati \$366,6 milliardgacha tushib ketdi. Oqibatda Meta 11-pog'onaga tushib, o'z

o'rnini \$369,6 milliard dollarlik Exxon Mobil neft-gaz gigantiga bo'shatdi.

Mark Sukerberg yangi xodimlarni ishga olishni to'xtatish hamda kompaniyaga asos solingan 2004-yildan beri uning budjeti keskin qisqartirilishini e'lon qilganidan so'ng Meta aksiyalari arzonlashib ketgan.

NVIDIA ROSSIYADAGI OFISINI YOPMOQDA

AQShning grafik protsessorlar ishlab chiqaruvchi Nvidia kompaniyasi "o'z xodimlarining ishini samarali tashkil etish mumkin emasligi" sababli oktabr oyi oxiriga qadar Rossiyadagi ofisini yopishga qaror qildi. Bu haqda o'z mabalariga asoslanib Forbes yozmoqda.




Aytilishicha, kompaniya o'z xodimlariga ikki yo'ldan birini tanlashni taklif qilgan: boshqa mamlakatga ko'chib o'tish yoki tomonlarning roziligi bilan nafaqa olib shartnomani bekor qilish. Manbaga ko'ra, ayni paytda Nvidia relokatsiyaga rozilik bergan xodimlarini charter samolyotlarida "faol tashish" bilan band.

Rossiya Ukrainaga bostirib kirganidan so'ng Nvidia Rossiyaga o'z qurilmalarini yetkazishni to'xtatgandi, o'sha

paytda uning bu mamlakatdagi ofisida 300 kishi ishlardi. Hozirda ularning soni 240 nafar va asosiy qismi — muhandislar.

TWITTERDA UZOQ KUTILGAN FUNKTSIYA ISHGA TUSHDI



Ko'p yillik kutishdan so'ng, Twitter foydalanuvchilari nihoyat o'z postlarini tahrirlash imkoniyatiga ega bo'lishdi.

Kompaniya yangi funktsiyani ishga tushirganini e'lon qildi. Biroq, dastlab u faqat Twitter Blue obunachilari uchun va faqat ayrim mamlakatlarda mavjud bo'ladi. Qizig'i shundaki, Qo'shma Shtatlar bu ro'yxatda yo'q.

Endi bu funktsiya Kanada, Avstraliya va Yangi Zelandiyadagi foydalanuvchilarga taqdim etilmoqda. AQShda u yaqin kelajakda paydo bo'lishi kerak, ammo aniq sana ma'lum emas.

Shunday qilib, yangi funktsiya doirasida foydalanuvchilar o'z postlarini tahrirlashlari mumkin bo'ladi. Biroq, birinchidan, nashr etilganidan keyin atigi 30 daqiqa ichida, ikkinchidan, yozuvni faqat besh martagacha

tahrir qilish mumkin bo'ladi. Ya'ni, umuman olganda, bu birinchi navbatda xatolarni tuzatish uchun yoki juda muhim va tegishli yangiliklarni tahrirlash uchun foydalidir. Shu bilan birga, foydalanuvchilar tegishli belgini bosish orqali xabarning asl nusxasini o'qishlari mumkin, shuning uchun bu funktsiya hech qanday zarar keltirmasligi kerak.

ENG YIRIK MUSIQIY KOLLEKTSIYA YARATILDI

Apple Music kutubxonasida qo'shiqlar soni 100 milliondan oshdi. Bu eng yirik musiqiy kolleksiyadir. Har kuni ushbu kutubxonaga 20 mingta



ijrochi o'z ijod mahsulini qo'shadi.

Yangi qo'shiqlar Apple Music To-day katalog xizmatining kengayishiga sabab bo'lmoqda. Yuz milliondan ortiq qo'shiqlar yangi ijrochilarni topish va turli janrlarni tadqiq etish imkonini beradi.

Kompaniyaning moliyaviy direktori Luka Maestrining aytishicha, xizmatlarga 860 milliondan ortiq foydalanuvchilar obuna bo'ldilar. Apple Music, Apple TV+, Apple News, iCloud kabilari eng yetakchilari sanaladi. Bir yilning o'zida obunalar soni 120 milliontaga yetdi.

Xalqaro hayot

INSONIYAT TANAZZUL YOQASIDA



BMT savdo va taraqqiyot (UNCTAD) konferentsiyasining 2022-yil uchun hisobotiga ko'ra, jahon iqtisodiyotidagi potentsial pasayish 2008-yilgi moliyaviy inqiroz va koronavirus pandemiyasidan ko'ra ko'proq zarar keltirishi mumkin.

"Tanazzul yoqasidan qaytish uchun hali vaqtimiz bor. Ilojsiz narsaning o'zi yo'q. Biz kursni o'zgartirishimiz kerak. Narxlar va fa-vqulodda soliqlarni nazoratga olish, monopoliyani jilovlash, xom ashyo narxlaridagi o'yinlarga barham beruvchi yanada amaliyroq strategiyalarga chorlaymiz", — dedi UNCTAD bosh kotibi Rebeka Grinspan.


Hisobotda prognoz qilinishicha, boy mamlakatlardagi joriy pul-kredit siyosati butun dunyoda iqtisodiy tanazzulga olib kelishi mumkin: 2022-yilda pasayish — 2,5 foiz, 2023-yilda — 2,2 foiz. Jahon iqtisodiyoti rivojlanishidagi pasayish oqibatida global YaIM hajmi pandemiyagacha davrdagidan ancha pastlab, jahon daromadining 20 foiziga teng — 17 trillion dollargacha zarar keltirishi mumkin. Eng ko'p zarar rivojlanayotgan mamlakatlar gardaniga tushadi, ular so'nggi 20 yilda yuz bergan istalgan moliyaviy inqiroz oqibatlaridan-da yomonroq retsessiya bilan to'qnashadi.

SHIMOLIY KOREYA UCHIRGAN RAKETA YAPONIYA USTIDAN O'TDI

4-oktabr kuni Shimoliy Koreya besh yil ichida birinchi marta Yaponiya ustidan ballistik

raketa uchirdi, raketa Tinch okeaniga tushgan. Bu haqda Yaponiya qirg'oq qo'riqlash xizmati ma'lumot berdi.

Raketa Yaponiyadan 3000 kilometr uzoqlikda qulagan. U qulagan joy noma'lumligicha qolmoqda. Yaqin oradagi kemalarga raketa qulagan joyga yaqinlashmaslik tavsiya qilingan. Kemalar va samolyotlarga yetkazilgan zarar haqida ma'lumot olinmadi.



Yaponiyada Shimoliy Koreya raketasi uchirilganidan so'ng favqulodda ogohlantirish tizimi ishga tushdi. Hodisa munosabati bilan Yaponiya KXDRga keskin norozilik bildirdi.

TURKIYADA LIRANING QULASHI NARX-NAVONI OSHIRIB YUBORDI

Turkiya statistika milliy instituti 3-oktabr kuni ochiq qilgan ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatda yillik inflyatsiya 83,45 foizni tashkil etdi.



Eng qimmatlashgan narsalar — alkogolsiz ichimliklar, transport xizmatlari, oziq-ovqat. Bir yil ichida oziq-ovqat va alkogolsiz ichimliklar narxi 93 foiz, tashish xizmatlari 117,66 foizga oshdi.

Narx-navo ta'siri nisbatan kamroq sezilgan sohalar: kommunikatsiyalar (30,76 foiz) va ta'lim (30,76 foiz).

Turkiya uy-joy bozorida narxlar o'sishi tezlashib ketdi. Uylar har oy o'rtacha 9,99 foizdan qimmatlashib bordi. Bir yil ichida uylarning narxi 85 foizgacha qimmatlashdi.

Yuqoridagi institut ma'lumotlariga ko'ra, shu yil 4-iyunida Turkiyada yillik inflyatsiya 70 foizdan oshgan edi.

AFG'ONISTONDA O'G'RILAR XALQ GUVOHLIGIDA JAZOLANDI



Afg'onistonning G'azna viloyatida o'g'irlik qilgan olti shaxs omma oldida jazolandi. Bu haqda Etilatroz xabar berdi.

O'g'irlarni jazolashdan avval "Tolibon" odamlari bozorda ovozkuchaytirgich bilan yurib, savdogarlarga ishni to'xtatib, jazo ijro etiladigan joyga borishni buyurishgan.

Voqea guvohlaridan birining aytishicha, jazona tortilganlar ayovsiz qamchilangan. Har bir o'g'iriga 37 qamchidan urilib, 7 oydan 12 oygacha gamoq jazosi berilgan.

Munosib e'tirof

Joylarda o'tkazib kelinayotgan videoselektor yig'ilishlarining tegishli hududlardagi mutasaddilarga biror bir kamchilik va nuqsonlarsiz to'g'ridan to'g'ri uzatilishida selektor aloqasi mas'ullari va texnik xodimlarining salmoqli hissasi, aniqrog'i, mustahkam o'rni bor. Hech mubolag'asiz, ushbu zamonaviy aloqa tizimisiz bugungi tezkor davr talablari darajasida faoliyat olib borishning o'zi bo'lmaydi. Zimmasidagi ana shunday ulkan mas'uliyat va javobgarlik hissini teran anglab yetgan soha xodimlaridan biri shofirkonlik Subxon OSTONOVdir.



yurtimiz aloqa sohasining bir guruh fidoyilari qatori Shofirkon tumani telekom-munikatsiyalar bog'lamasi selektor aloqasi bo'yicha muhandisi Subxon Ostono'v "O'z kasbining ustasi" belgisi bilan taqdirlandi. Bu munosib e'tirof to'liq ma'nodagi aloqachilar oilasining (Subxon akaning umr yo'ldoshi Yulduz Xolova ham nafaqaga chiqquniga qadar Shofirkon TTB "UZ-TELECOM" savdo va xizmat ko'rsatish ofisi 1-toifali aloqa operatori vazifasida ishlagan) barcha a'zolari qalbini munavvar etib, quvonchlariga to'ldirdi. Munosib mukofot egasining bundan keyingi ishlari ham baroridan kelishiga ishonchimiz komil.

Asqar ISTAMOV,
"Xabar"ning Buxoro viloyatidagi muxbiri

Qahramonimiz o'zining dastlabki ish faoliyatini bundan 39 yil oldin tuman elektr aloqa (hozirgi telekommunikatsiyalar) bog'lamasi) da elektromontyor sifatida boshlagan. O'tgan davr mobaynida xizmat vazifalari taqozosi bilan Subxon Ostono'v 5 va 6-darajali elektromontyor, EHM va aloqa operatori, elektr uskunalarini ta'minoti mutaxassisi, katta elektromexanik, shahar va qishloq ATSLarining tajribali elektromontyor vazifalarida ishlab, el-yurt orasida obro'-e'tibor qozondi, hamkasblari va shogirdlari hurmatiga sazovor bo'ldi. Tuman markazidagi Zarchabek, Xo'ja Orif MFYlari aholisi, shuningdek, A.Navoiy va Farhod ko'chalaridagi xonadonlarda istiqomat qiluvchi kishilar bilan suhbatda bo'lsangiz, ular Subxon aka haqida har doim iliq so'zlarni aytib kelishayotganiga amin bo'lasiz. Birgina shu misolning o'zi tanlagan

kasbining haqiqiy ustasi hisoblangan S.Ostonovning o'z kasbiga cheksiz sadoqatidan, yoz jaziramasini-yu qish chillasini pisand etmagan holda ko'pni ko'rgan hamyurtlari-yu talabchan abonentlar xizmatiga doimiy kamarbasta ekanligidan dalolat beradi.

Shu haqda o'ylaganda S.Ostonov bir zum o'yg'a to'ladi. Beixtiyor dastlabki ish faoliyatini boshlagan mas'ud damlar ko'z oldida gavdalanadi.

— Ilk ustozday mo'tabar zotning ota singari ulug'ligini men o'shanday qat'or va takror tushunib yetgandim, — deydi suhbatdoshimiz. — Endigina o'rta maxsus ta'lim muassasasini bitirib kelgan menday yosh mutaxassisga oq yo'l tilab, o'z kasbining sir-asrorlarini miridan sirigacha o'rgatgan rahmatli Amon Narzullaev, Jabbor Bozorov, bugungi kunda ham yoshlardan beg'araz maslahat, aniq yo'l-yo'riq va dadil ko'rsatmalarini ayamay ke-

layotgan Namoz Jalilovlardan bir umrga minnatdorman.

Haq gap. Qolaversa, nazariya bilan amaliyot uyg'un bo'lishi zarurligini Subxon Ostono'v tajribali ustozlari bilan ilk muloqotga kirishganidan o'tgan, ularning aytganlarini bekamu ko'st bajargan kunlaridan boshlaboq teran anglab yetgan, hozirgi Toshkent aloqa kollejida egallagan bilimlarini kundalik ishga tatbiq etishga chog'langan damlaridayoq aniq sezgan edi. Hali-hanuz Subhon aka qalbini bu hayotiy zarurat tark etgan emas. Ustozlarining ilmi zakovatidan, boy tajribasi-yu qalb qo'ridan bahramand bo'lgani uning butun ongli hayotini belgilab bergan bo'lsa ajabmas.

Shu o'rinda ko'pchilikka yaxshi ma'lum bo'lgan bir hikmat yodga tushadi "Agar bu dunyo saodatini tilasang tijorat qilgil, agar u dunyo saodatini tilasang ibodat qilgil, agar har ikkala dunyo

saodatini istasang ilm o'rgan va uni boshqalarga o'rgat". Bas shunday ekan, ikkala dunyo saodatiga erishgan aziz ustozlar hamisha e'zozda. O'tganlarining porloq xotirasi esa umrboqiydir.

Aloqa sohasida salkam qirq yillik mukammal tajribaga ega Subxon Ostono'vning o'zi ham bugungi kunda Nurali Eсанov, Mirobid Xo'jaev, Kamol Shomurodov singari iqtidorli, tirishchoq va tinim bilmas navqiron shogirdlariga talabchan, ayni paytda esa mehribon va g'amxo'r ustozdir. Usto'zu shogirdlar axborot-kommunikatsiya texnologiyalari davri talablaridan kelib chiqqan holda g'ayrat-shijoat bilan ishlab kelmoqdalar.

Uzoq yillik va samarali mehnat esa hech qachon zoe ketmagan va munosib tarzda e'tirof etilgan. Bu gal ham shunday bo'ldi. Mam-lakatimiz mustaqilligining 31 yilligi munosabati bilan

Diydor onlari

Ustozlarga atalgan kun

Ustozlarga Chimyonda izzat-ikrom ko'rsatiladi... Betakror g'ozalligi, shifobaxsh suvlari, bahavosi, muqaddas qadamjolari bilan mashhuri jahon qishloqqa hali bormay turib, g'ushxabarni eshitgan on dilingizda qandaydir iliq tuyg'ular jo'sh uradi. Axir bu makonni kun bo'yi kezsangiz, poyi piyoda yursangiz ham sira toliqmaysiz, aslo zerikmaysiz. Bu zamindagi bir kunlik dam yuz kunga tatiydi. Vujudingizga yengillik, xotirjamlik inadi.

"O'zbektelekom" AK Farg'ona filiali bilan filial boshlang'ich kasaba uyushmasi qo'mitasi an'anaga ko'ra "Ustozlarga ehtirom" bayrami to'g'risidagi xabarni faxriylar shodu xurram kutib olishibdi. Shunday uchrashuv bo'lsinki, mehr harorati, mazmuni bilan umrga tatiguli xotiralar qoldirsin. Pochta va telekom birga bo'lgan yillarda elu yurt farovonligi yo'lida baqamti, bahamjihat xizmat qilgan 50 nafar faxriy yig'ilgani uchun ham ustoz va shogird — "O'zbekiston pochta" AJ hamda "O'zbektelekom" AK Farg'ona filiallari kasabaqo'mlari Murodil Mahmudov hamda Murodjon Azamovlar zimmasiga katta mas'uliyat yuklangan edi. Qolaversa, bu davraga sobiq vazir, O'zbekistonimizdagi hamma aloqachilarning ustozlari Abduvo'hib Jo'raboyevning ham tashriifi kutilayotgandi.

Mana, ular quchoq ochib ko'ris-hmoqdalar. Chehralarda samimiyat, do'st-birodarlik, shodumonlik barq uradi. Shosha-pisha bolalar, nevaralaru chevaralardan so'raydilar. Ahmadjon Usmonov, Ulug'bek Sultonov, Davlatlali Toshmatov, Jumaboy Shamshidinov, Islomjon Nishonov, Usmonjon To'y-chiyev, No'monjon Oripov, Shukurjon Alimov, Mirzali Sherov, Omonullo Qosimov... Yuz-ko'zlaridan nur yog'ilgan qadrdonlar "Haliyam o'sha-o'shasiz.



Qachon qariysiz?", "Mo'ysafidlik muborak! Siz ham safimizga o'tib olibsidal!", "Tushlaringizda pochmani ko'ryapsizmi, telekomnimi?..." deya o'zlariga biram yarashliq hazil-huzullar bilan xol-ahvol so'rashdilar.

— Gurunglar bir piyola choy ustida yana boshqacha tarovat kasb etdi, — deydi "O'zbektelekom" AK Farg'ona filiali faxriylar kengashi raisi Valijon Qurbonov. — Ustoz Jo'raboyev har galgidek, yurtimizdagi farovonlik, iqtisodiyotdagi taraqqiyot sohamizga bog'liqligi, raqamli dunyo shiddat bilan rivojlanayotganligi, dunyo tillarini, jumladan, ingliz tilini o'rganish zarurati mavzulariga alohida to'xtaldi. Faxriylar ham bu jarayondan chetda turmay, yoshlar, nevaralar, shogirdlar

tarbiyasiga e'tiborni har qachongidan ham kuchaytirish lozimligini ta'kid-ladi. Uchrashuvda filialimiz direktori Vladimir Yeykov ishtirok etdi va sohada erishilayotgan yutuqlar, yaqin oylar va uzoq muddatdagi rejalar, shuningdek, faxriylarni qiziqtirgan qator savollarga javob berdi.

— Bilasizmi, — dedi Valijon gapida davom etarkan. — Chimyonda yangidan bunoyd etilayotgan masjidida peshin namozini o'qiganimiz, Xojanazar Xuvaydo maqbarasini ziyorat qilganimiz kuni-mizni yanayam ziynatladi. Mustaqillik bergan erkinlikdarga shukronalar aytdik.

Ha, tarixiy joylarga, ziyoratgohlarga sayohat tashkil etilayotgani nihoyatda tashiga loyiq. Bu ham ichki turizm rivojiga bir salmoqligina hissa, albat-

ta. Ziyoratgohda Xojanazar Xuvaydo (1704-1780) o'zbek poeziyasining ulkan vakili, "Xuvaydo bobom" deya ardoqlanuvchi buyuk muallim haqida Xuvaydoning to'rtinchi avlod vakili — 89 yoshli O'limaxon maxsum dadaning o'g'li Sobirxon qisqacha ma'lumotlarni taqdim qildi.

"O'zbektelekom" AK filiali faxriylari Davlatlali Toshmatov hamda Ahmadjon Ikromovlarga tavallud ayyomlari munosabati bilan sovg'alarni ustoz Jo'raboyev olqishlar ostida topshirdi.

Hikmatli kunni yana xayrli amallar bezadi. Farg'onalik 83 yoshli Klara Isaeva hamda Quva tumani markazida yashayotgan, o'z vaqtida zabardast aloqachi-muhandis bo'lib obro' qozongan, ayni kunlarda og'ir dardga chalingan ustoz Yunusali Elmurodovlar holiday xabar olindi.

Bir-birlarini sog'inganlar xayr-xo'shlashishmoqda. Qarang, juda ta'sirli, ham quvonchli, ham mahzun lahalar. Telekommichlar, tashkilotchilar — ular ko'pchilik, nomma-nom aytish, menimcha, shartmas, himmat uchun, inson qadr-qimmat, ustozlar hurmatini joyiga qo'ya olganlar, bor bo'lishsin, dedim, aslo kam bo'lishmasin!

Zero, buyuklarimiz aytib ketganlaridek, insonni qadrlamoq uni yo'qot-gandan keyin orqasidan yig'lamoq emas. Toki hayot ekan, toki yoningizda ekan, uni mahkam quchoqlab, unga mehr ulashmog'imizdir.

Hafiza SALYAHOVA,
"Xabar"ning
Farg'ona viloyatidagi muxbiri

Ishimda unum bo'lsin desangiz...

Alohida qaralganda, har bir odat ahamiyatsiz bo'lib tuyulishi mumkin, ammo ular samaradorlikka katta ta'sir ko'rsatadi. Ularning aksariyati zavq bag'ishlashi bilan birga, uzoq muddat davomida zarar ham yetkazishi mumkin, deb yozmoqda Lifehacker.

Internetda vaqt o'tkazish

Diqqatni jamlash va biror-bir narsaga to'liq sho'ng'ish uchun o'rtacha 15 daqiqa vaqt ketadi. Agar yangiliklarni o'qish, ijtimoiy tarmoqlarga kirish yoki video tomosha qilish uchun ishdan chalg'ishga to'g'ri kelsa, ishni boshlash uchun yana 15 daqiqa kerak bo'ladi. Xodim o'z ishidan qancha ko'p chalg'isa, unumdorlik shuncha kamayadi.

Perfeksionizmga intilish

Ko'pchilik biror narsani boshlash kerak bo'lganda, o'z g'oyasi yoki ishi idealga mos kelmaydi deb, talvasaga tushib qoladi. Ammo hech qachon biror ish boshlanmasa va g'oyalarga shakl berish imkoniyatidan foydalanilmasa, qanday qilib biror narsaga erishish mumkin? Yozuvchi Jodi Pikolt aytganidek, yomon yozilgan sahifani tahrirlash mumkin, ammo bo'sh sahifani emas.

Xatlar kelishi bilan o'qulgan javob berish

Ijtimoiy tarmoqlarning chalg'itishiga yo'l qo'ymaslik zarur. Xabarlarini bir vaqtning o'zida tekshirish va eng muhim mijozlarning xabarlarini uchun bildirishnomalarni o'rnatish mumkin. Lekin ularni har daqiqada tekshirish va javob yozishga shoshilish ham samaradorlikka putur yetkazadi.

Ertalab uxlab qolish

Uyqu bir necha jarayonlarga bo'linadi, ikkinchisi uyg'ongandan keyin hushyor va faol bo'lishga tayyorlaydi. Shuning uchun ba'zida uyg'otkichdan oldin uyg'onish holati kuzatiladi. Ammo yana uxlashga qaror qilinsa, unda yaxshi kayfiyat



yo'qoladi va charchagan holda uyg'oniladi. Bu holat bir necha soat davom etishi mumkin. Shuning uchun tongda uyqu qochgan zahoti uyg'onish tavsiya etiladi. Aks holda kun davomida charchoq qiynaydi.

Bir vaqtning o'zida bir nechta ishlarni bajarish

Stenford universiteti tadqiqotchilari bir vaqtning o'zida bir nechta ishni bajaradigan odamlar, faqat bitta ish bilan band bo'lganlarga qaraganda, diqqatni jamlash yoki biror narsani eslab qolish qiyinroq ekanini aniqladi.

Bir vaqtning o'zida ikkita ishni bajarishga harakat qilinsa, miya ikkalasini ham bir xil darajada qabul qila olmaydi. Hatto ko'p vazifalarni bajarish ishlarni tezroq tugatishga yordam berishiga amin bo'lganlar ham sinov natijalariga ko'ra, ishlarni ketma-ket bajar-ganlardan orqada qoladi.

Qiyin ishlarni kechiktirish

Insonda cheklangan miqdordagi ruhiy energiya mavjud. U sarflanganda, qaror qabul qilish qobiliyati va samaradorlik keskin pasayadi. Ushbu hodisa qaror charchoqlari deb ataladi. Shuning uchun birinchi

bo'lib murakkab ishlarni yakunlash tavsiya etiladi. Natijada kunning qolgan qismida ortiqcha zo'riqish kuzatilmaydi.


Uchrashuvlarga borish

Uchrashuvlar ko'p ish vaqtini o'g'irlaydi, shuning uchun iloji bo'lsa, ulardan voz kechishga harakat qilish kerak. Agar chindan ham muhim bir narsa muhokama qilinsa, oldindan belgilangan jadvalga rioya qilish mumkin. Vaqt chegarasi aniq bo'lsa, hamma uchun diqqatni jamlash osanroq bo'ladi.

Ko'p shirinlik iste'mol qilish

Glyukoza diqqatni jamlash uchun yordam beradi. Agar uning qondagi darajasi juda past bo'lsa, organizmda charchoq paydo bo'ladi, diqqatni jamlashda qiyinchilik yuzaga keladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson o'zini yaxshi his qilishi uchun 25 gramm glyukoza yetarli. Ularni ko'plab mahsulotlardan olish mumkin, farqi faqat ta'siri qancha davom etishida. Shirinliklar, gazli ichimlik va shakar bilan boyitilgan boshqa mahsulotlar atigi 20 daqiqa davomida tetiklik hissini beradi.

Ibrat



FITRAT TAQOZOSI

Bir darvesh suvga tushib ketgan chayonni qut-qarmoqchi bo'ldi. Qo'lini uzatgan edi, chayon uning qo'lini chaqib oldi.

Darvesh yana qo'lini uzatdi. U yana chaqidi.

Shunda uni kuzatib turganlar dedi:

– Sen yordam bermoqchi bo'lsang, u senga yomonlik qilib turibdi. Qo'y bu ishingni!

Darveshning javobi ma'noli bo'libdi:

– Uning fitratida chaqishlik bor. Menda esa mahluqotga nisbatan muhabbat va shafqat... U fitratini o'zgartirmagani holda, men nechun fitratim taqozo etgan ishdan voz kechay?!



Xotin eridan arazladi:
– Siz bilan hech qayoqqa bormayman.
– Unda nega yasanib, bo'yanib olding?
– Siz bilan shunchalar chiroyli ayol hech qayoqqa bormaganini bilib qo'yishingiz uchun!

– Kecha bezorilar tutib olib, hamyonim, soatim va telefonimni olib qo'yishdi.
– Boks chempioni medalini bor shakillidi?
– Ha, bor. Hayriyat, uni topishilmadi.

<h1>Xabar</h1> <p>MUASSIS</p> <p>O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI</p> <p>Bosh muharrir: Abdug'ani ABDURAHMONOV</p>		<p>Tahrir Hay'ati: Sherzod SHERMATOV (Hay'at raisi), Nazirjon HASANOV, Kommuna IRISBEKOVA, Alisher FAYZULLAYEV, Lutfullo TURSUNOV (Bosh muharrir o'rinbosari), Usmonjon YO'LDOSHEV (Mas'ul kotib).</p> <p>Tahririyatga kelgan qo'lyozma va suratlar egalari qaytarilmaydi. Muallifning fikrlari tahririyat fikridan farqlanishi mumkin. Nashrimizdan ko'chirib bosilganda "Xabar" dan olinganligi ko'rsatilishi shart</p> <p>Gazeta sahifalarini tayyorlashda internet materiallaridan ham foydalanildi. Bahosi kelishilgan narxda.</p>		<p>MANZILIMIZ:</p> <p>100000 Toshkent shahri, Amir Temur 1-tor ko'chasi, 2-uy (Mo'ljal Oloy bozori). Telefonlar: 71-234-18-59, 71-234-18-31. Faks: 71-234-17-91. E-mail: info@xabar.uz</p> <p>Obuna indeksi — 228.</p> <p>Gazeta tahririyat kompyuter bazasida terildi va sahifalandi. Dizayner: Asliddin BO'RIYEV. Navbatchi: Muhiddin SOLIYEV.</p>																					
<p>Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 0016 raqami bilan 2013-yil 23-iyulda ro'yxatga olingan.</p>		<p>Gazeta haftaning juma kuni chiqadi</p>		<p>Gazeta "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Manzil: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi 41-uy.</p>		<p>I-1059 sonli buyurtma. Ofset usulida bosildi. Qog'oz bichimi A-3, hajmi 2 bosma taboq. Adadi: 2875</p>		<p>ISSN 2010-6424</p> <p>Bosishga topshirildi — 17 °° Bosishga topshirish vaqti — 24 °°</p>																	
<p>Yiloyat muxbirlari:</p>		<p>Andijonda (74) 226-47-80</p>		<p>Buxoroda (99) 854-7305</p>		<p>Jizzaxda (94) 199-95-64</p>		<p>Namanganda (91) 353-71-25</p>		<p>Navoiyda (79) 225-91-10</p>		<p>Nukusda 554-35-45</p>		<p>Samarqandda (99) 557-84-44</p>		<p>Termizda (99) 508-30-52</p>		<p>Toshkentda 234-18-59</p>		<p>Urganchda (97) 211-65-05</p>		<p>Farg'onada (73) 244-18-05</p>		<p>Qarshida (93) 931-08-99</p>	